

MUHAMMAD AL-XORAZMIY
NOMIDAGI TATU FARG'ONA FILIALI
FERGANA BRANCH OF TUIT
NAMED AFTER MUHAMMAD AL-KHORAZMI

“AL-FARG‘ONIIY AVLODLARI”

ELEKTRON ILMIY JURNALI | ELECTRONIC SCIENTIFIC JOURNAL

TA'LIMDAGI ILMIY, OMMABOP VA ILMIY TADQIQOT ISHLARI



3-SON 1(3)
2023-YIL

TATU, FARG'ONA
O'ZBEKISTON



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
FARG'ONA FILIALI

Muassis: Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali.

Chop etish tili: O'zbek, ingliz, rus. Jurnal texnika fanlariga ixtisoslashgan bo'lib, barcha shu sohadagi matematika, fizika, axborot texnologiyalari yo'nalishida maqolalar chop etib boradi.

Учредитель: Ферганский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразми.

Язык издания: узбекский, английский, русский.

Журнал специализируется на технических науках и публикует статьи в области математики, физики и информационных технологий.

Founder: Fergana branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorazmi.

Language of publication: Uzbek, English, Russian.

The magazine specializes in technical sciences and publishes articles in the field of mathematics, physics, and information technology.

2023 yil, Tom 1, №3
Vol.1, Iss.3, 2023 y

ELEKTRON ILMIY JURNALI

ELECTRONIC SCIENTIFIC JOURNAL

«Al-Farg'oniylar avlodlari» («The descendants of al-Fargani», «Potomki al-Fargani») O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2022-yil 21 dekabrda 054493-son bilan ro'yxatdan o'tgan.

Tahririyat manzili:

151100, Farg'ona sh., Aeroport ko'chasi 17-uy, 201A-xona

Tel: (+99899) 998-01-42

e-mail: info@al-fargoniy.uz

Qo'lyozmalar taqrizlanmaydi va qaytarilmaydi.

FARG'ONA - 2023 YIL

TAHRIR HAY'ATI

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Muxtarov Farrux Muhammadovich,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali direktori, texnika fanlari doktori

Arjannikov Andrey Vasilevich,
Rossiya Federatsiyasi Sibir davlat universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori

Satibayev Abdugani Djunosovich,
Qirg'iziston Respublikasi, Osh texnologiyalari universiteti, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasulov Akbarali Maxamatovich,
Axborot texnologiyalari kafedrasida professori, fizika-matematika fanlari doktori

Yakubov Maksadxon Sultaniyazovich,
TATU «Axborot texnologiyalari» kafedrasida professori, t.f.d., professor, xalqaro axborotlashtirish fanlari Akademiyasi akademigi

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich,
Farg'ona politexnika instituti, Iqtisod fanlari doktori, professor

Abdullayev Abdujabbor,
Andijon mashinosozlik instituti, Iqtisod fanlari doktori, professor

Qo'ldashev Abbasjon Hakimovich,
O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, texnika fanlari doktori, professor

Ergashev Sirojiddin Fayazovich,
Farg'ona politexnika instituti, elektronika va asbobsozlik kafedrasida professori, texnika fanlari doktori, professor

Qoraboyev Muhammadjon Qoraboevich,
Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg'ona filiali fizika matematika fanlari doktori, professor, BMT ning maslahatchisi maqomidagi xalqaro axborotlashtirish akademiyasi akademigi

Naymanboyev Raxmonali,
TATU FF Telekommunikatsiya kafedrasida faxriy dotsenti

Polvonov Baxtiyor Zaylobiddinovich,
TATU FF Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari

Zulunov Ravshanbek Mamatovich,
TATU FF «Dasturiy injiniringi» kafedrasida dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi

Saliyev Nabijon,
O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona

filiali dotsenti

G'ulomov Sherzod Rajaboyevich,
TATU Kiberxavfsizlik fakulteti dekani, Ph.D., dotsent

G'aniyev Abduxalil Abdujalilovich,
TATU Kiberxavfsizlik fakulteti, Axborot xavfsizligi kafedrasida t.f.n., dotsent

Zaynidinov Hakimjon Nasritdinovich,
TATU Kompyuter injiniringi fakulteti, Sun'iy intellect kafedrasida texnika fanlari doktori, professor

Abdullaev Temurbek Marufovich,
TATU Farg'ona filiali direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari, texnika fanlar bo'yicha falsafa doktori

Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li,
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Otakulov Oybek Hamdamovich,
fakultet dekani, texnika fanlar nomzodi, dotsent

Daliyev Baxtiyor Sirojiddinovich,
fakultet dekani, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Teshaboev Muhiddin Ma'rufovich,
Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

Bilolov Inomjon O'ktamovich,
pedagogika fanlar nomzodi

Ibroximov Nodirbek Ikromjonovich,
kafedra mudiri, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Kochkorova Gulnora Dexkanbaevna,
kafedra mudiri, falsafa fanlari nomzodi

Kadirov Abdumalik Matkarimovich,
falsafa fanlar bo'yicha falsafa doktori

Nurdinova Raziya Abdixalikovna,
kafedra mudiri, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Obidova Gulmira Kuziboyevna,
kafedra mudiri, falsafa fanlari doktori

Rayimjonova Odinaxon Sodiqovna,
kafedra mudiri, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Sabirov Salim Satiyevich,
Kafedra mudiri, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

To'xtasinov Dadaxon Farxodovich,
Kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jurnal quyidagi bazalarda indekslanadi:



MUNDARIJA | ОГЛАВЛЕНИЕ | TABLE OF CONTENTS

F.Muxtarov, XAVF-XATARLARNI KELITIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR, XAVF-XATARLARNI ANIQLASH USULLARI, MUAMMO VA YECHIM	5-9
Б.З.Полвонов, А.Ш.Уринбоев, СПЕЦИФИКА ЛЮМИНЕСЦЕНЦИИ ПОЛЯРИТОНОВ В ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ СТРУКТУРАХ НА ОСНОВЕ ХАЛЬКОГЕНИДОВ КАДМИЯ	10-17
Р.М.Зулунов, Б.Н.Солиев, ИСПОЛЬЗОВАНИЕ PYTHON ДЛЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ	18-24
D.X.Tojimatov, CISCO PACKET TRACER YORDAMIDA HUSUSIY KORXONALAR UCHUN MAXSUS HIMOYALANGAN TARMOQ KANALI ISHINI LOYIHALASH	25-32
А.Ж.Махмудова, Ш.М.Тошпулатов, Ф.М.Тошпулатова, МАТРИЧНЫЙ ФОТОПРИЁМНИК ИНФРАКРАСНОГО ИЗЛУЧЕНИЯ ДЛЯ ИЗМЕРЕНИЯ ЛЕЙКОЗА	33-37
В.М.Polvonova, SO'Z QO'SHILMALARIDA VARIANTLILIK	38-41
I.I.Bakhoviddinov, SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE DIGITAL ECONOMY: BALANCING GROWTH AND ENVIRONMENTAL CONCERNS	42-50
S.I.Abdurakhmonov, Sh.M.Ibragimov, USING VISUAL LEARNING ENVIRONMENTS IN TEACHING OBJECT-ORIENTED PROGRAMMING	51-55

SO‘Z QO‘SHILMALARIDA VARIANTLILIK

**Polvonova Bashorat Mirobijnovna,
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikdagi so‘z qo‘shilmasi sintaktik birligining nomlanishi va unga oid variantlilik masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda so‘z qo‘shilmasi sintaktik birligining kelib chiqishi va ulardagi variantlilik hodisasi haqidagi qarashlar umumlashtiriladi. Hodisaga doir mavjud fikrlar tahlil qilinib lisoniy dalillar bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: sintaktik konstruktsiya, so‘z tizilmasi, variatsiya, invariant, variant, model, sinonimiya, leksik tarkib.

Kirish. Gap kishilarning bir-biriga fikr, axborot uzatishi uchun ishlatiladigan asosiy birlik bo‘lib, uning so‘z qo‘shilmasi hamda so‘z birikmasidan ajratib turuvchi asosiy belgisi peredikativ munosabatning ifodalanishidir. So‘z birikmasi va qo‘shilmasida ma‘lum tushuncha ifodalansa, gaplarda fikr o‘z aksini topadi.

“Gap – sintaktik yaxlitlik, bu uning grammatik shakllanganligi, tarkibiy uzvlari bir butun holga kelganligi bilan izohlanadi [1-2]. Demak, gapda bir necha jihat birlashgan bo‘ladi. Birinchi jihat – gapning moddiy qobig‘i, bu uni tashkil qiluvchi so‘z va grammatik shakllar. Masalan, aksariyat gaplarda kesimlik ko‘rsatkichi bilan shakllangan atov birligi (kesimlik)ning bo‘lishi shart. Ikkinchi jihat – ana shu moddiy qobiqqa singdirilgan aqliy mahsul – fikr-axborot. Uchinchi jihat esa so‘zlovchining voqelikka munosabati, nutqiy vaziyati. Bu uch jihat nutqda uchlikni – sintaktika, semantika va pragmatika birligini tashkil etadi”¹

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ma‘lumki, sintaktik birlik sifatida so‘z qo‘shilmasiga har hil ta‘riflar berilgan. Dastlab so‘z qo‘shilmasi sintaktik birlik sifatida qayd etilmagan. Sintaktik birliklar faqat uchta : so‘z birikmasi, gap va qo‘shma gap deb tan olingan. Lekin A.A.Shaxmatov va V.V.Vinogradov tadqiqotlarida² bitta gap ichida teng bog‘langan so‘zlar va ajratilgan izoh bo‘laklarda

uchraydigan izohlovchi va izohlanuvchi birikuvi so‘z birikmasiga ham, gap konstruktsiyasiga ham kiritilmaydi va alohida hodisalar ekanligi aytiladi. R.Sayfullayeva bunday bog‘lanishni, ya‘ni gap ichidagi so‘zlar (bo‘laklar)ning o‘zaro teng birikishini so‘z *so‘z tizmasi* deb ataydi: “ So‘z tizmasi (*olma va anor*) teng huquqli a‘zolaridan tashkil topadi. Ular o‘rtasida tobelik bo‘lmaydi. Shunga muvofiq, so‘zlar orasida bir-birini izohlash, to‘ldirish hodisasi ham yo‘q [2-5]. So‘z tizmasi tashkil etuvchilarining o‘rnini ham almashtirish mumkin: *anor va olma*. So‘z tizmasidagi a‘zolar birgalikda boshqa so‘zga tobelanib, uni aniqlashi (*oq va qizil gullar*) yoki boshqa so‘z tomonidan izohlanib hokim so‘z bo‘lib kelishi mumkin (*shirin olma va anor*). Shuningdek, so‘z tizmasidagi har bir a‘zo o‘ziga xos tobe uzvlarga ham ega bo‘lishi mumkin (*o‘qiyotgan bola va yozayotgan qiz*). So‘z tizmasi a‘zolari teng bog‘lovchilar yordamida yoki bog‘lovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bog‘lanishi mumkin: *bola, qiz* kabi. So‘z tizmasi a‘zolari, asosan, bir so‘z turkumiga oid leksemalar voqelanishi bo‘ladi: *olma (ot) va anor (ot)*. Ba‘zan ular turli turkumda ham bo‘ladi: Halim (ot) va men (olmosh)”³. A.Ahmedov esa bunday konstruktsiyani “tenglanishli so‘z birikmasi” deb atasa ham, biz uni so‘z qo‘shilmasi deb nomladik. Chunki *birikish* so‘zi tilshunoslikda, ko‘pincha, tobe bog‘lanishni ifodalaydi, *qo‘shilma* so‘zi esa teng munosabatlarga

¹ Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv-qo‘llanma. T.:Fan va texnologiya.2009. 324-b.

² Qarang . A.A.Shaxmatov va V.V.Vinogradov.O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi.O‘z FA // “Fan” . 1992.8-b.

³ Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv-qo‘llanma. T.:Fan va texnologiya.2009.301-b.

ishora qiladi. "Bir mustaqil so'z boshqa mustaqil so'zni izohlaydigan bog'lanish tobe bog'lanish deyiladi. Bir mustaqil so'z boshqasiga ergashmay, izohlamay bog'lansa, teng bog'lanish deyiladi. So'zlarning teng bog'lanishi **so'z qo'shilmalarini** hosil qiladi: yoshlar va kelajak, otam bilan onam, oy hamda quyosh. Teng bog'lanishda tobe va hokim so'z bo'lmaydi, ikkala so'z ham teng huquqli bo'ladi"⁴.

Demak, so'z qo'shilmalari teng munosabatda bog'langan ikkita so'zdan tashkil topadi. U gapda, ko'pincha, uyushiq bo'laklar vazifasini bajaradi. Uyushiq bo'laklar ikki va undan ortiq birliklardan tarkib topsa-da, biz so'z qo'shilmasi sifatida faqat ikki tarkibli, ya'ni ikkita leksemaning teng aloqa bilan birikishini nazarda tutdik. So'z qo'shilmalari o'rtasidagi variantlilik bir xil mazmun-munosabat bildiruvchi bog'lovchilar yordamida yoki tenglik ohangi bilan hosil bo'ladi. Masalan biriktiruv bog'lovchilari doirasida:

- Qizlar va yigitlar;
- Qizlar **hamda** yigitlar;
- Qizlar **bilan** yigitlar;
- Qizlar-**u** yigitlar;
- Ham** qizlar, **ham** yigitlar.

Bu so'z qo'shilmalarida atash ma'no ifodalovchi komponentlar: 1-qizlar, 2-yigitlar o'zgarishsiz saqlanib qolib, faqat ularni teng munosabatda bog'lovchi yordamchi so'z va vositalargina o'zgargan. Zidlov bog'lovchilari ham o'zaro sinonim bo'lib, so'z qo'shilmalarni bog'laganda quyidagi variantlilikni hosil qiladi.

- Sersuv, **lekin** bemaza (shaftoli);
- Sersuv, **ammo** bemaza (shaftoli);
- Sersuv, **biroq** bemaza (shaftoli);
- Sersuv-**u**, bemaza (shaftoli).

Natijalar. Berilgan so'z qo'shilmalarida mazmun bir-biriga juda yaqin, deyarli bir xil semantik strukturaga ega. Ularni faqat bog'lovchilar

sinonimiyasi farqlab turibdi. Bu variantlar qo'llanish chastotasi va stilistikasi bilan farqlanadi. Dastlabki uch bog'lovchi yozma nutqqa xos bo'lib, so'zlashuv nutqida juda kam qo'llanadi. Zidlov bog'lovchisi o'rnida kelgan yuklama (-u) esa og'zaki nutq uslubiga xos.

Ayruv bog'lovchilari bilan ham shunday variantlilikni kuzatish mumkin (Goh akam, goh otam; Ba'zan akam, ba'zan otam; Bir akam, bir otam), lekin inkor bog'lovchi yolg'iz *Na..., na..* birligidan iborat bo'lgani tufayli variantlilik hosil qilishi kuzatilmaydi. So'z qo'shilmasi variantlari mavjud ekan, demak, ular uchun invariant ham mavjud bo'ladi. So'z qo'shilmada ikkita teng munosabatli komponentlar o'zaro teng bo'lgan aloqaga (biriktirish, zidlik, ayruv, inkor va teng ohang yordamida) kirishadi. Ularda leksema ikkita bo'lib, har biri **W** (**W** ingliz tilidagi word-so'zning bosh harfi bo'lib, xalqaro standart bo'yicha olindi) bilan belgilansa, so'z qo'shilmasi uchun **W=W** so'z qo'shilmasi invarianti amal qiladi. Masalan:

- Olma va anor
- Olma bilan anor
- Olma ham anor
- Olma-yu anor
- Olma, anor

So'z qo'shilmada hech qanday tobe munosabat yo'q, shuningdek, predikat ham mavjud emas. Shuning uchun o'zaro teng bog'langan leksemalardan iborat. Lekin teng bog'lovchining mazmuniy munosabat turi almashganda **W=W** invariantining variantlari o'zaro sinonim bo'la olmaydi. Misol uchun:

1.	W	biriktiruv munosabati	W
Sersuv	va		mazali
Sersuv	hamda		mazali
Ham sersuv,	ham		mazali
Sersuv	-u		mazali

Bu birliklarda sersuvlik va mazalilik ma'nosini bildirgan so'zlar bir-birini to'ldirib, o'zaro teng aloqaga kirishgan.

⁴ M.Qodirov, H. Ne'matov, M. Abduraimova, R. Sayfullayeva, B. Mengliyev. Ona tili. Darslik.Toshkent. Cho'lpon. 2019.35-b

2.	W	zidlov munosabati	W
Sersuv		lekin bemaza	
Sersuv		ammo bemaza	
Sersuv		biroq bemaza	
Sersuv		-u bemaza	

Bu so'z qo'shilmalarida esa sersuvlik leksemasi bemazalikka zidlangan, ya'ni leksemalar antonimlik munosabatiga kirishgan. Bunda suvli bo'lgan mahsulot mazali (shirin) bo'lishi kerak edi, lekin bunday bo'lmadi, degan mazmun ifodalangani. Turli zidlov bog'lovchilar bilan bog'langan bu variantlar boshqa turdagi (masalan, birlashtiruv munosabatidagi) so'z qo'shilmalariga sinonim bo'lolmaydi.

3.	W	ayiruv munosabati	W
Goh mazali,		goh bemaza	
Dam mazali,		dam bemaza	
Ba'zan mazali,		ba'zan bemaza	
Bir mazali,		bir bemaza	
Yo mazali,		yo bemaza	

Ayiruv munosabati bilan bog'langan so'z qo'shilmalarda propozitsiyalarning navbatma-navbat aks etishi yoki ulardan birining aks etishi alohida xarakterga ega.

4.	W	inkor munosabati	W
Na mazali,		na bemaza	
Na achchiq,		na shirin	
Na ota,		na ona	
Na mazali,		na bemaza	


Ko'rinib turganidek, bunday qo'shilmalarda faqat bitta bog'lovchi Na., na... mavjud bo'lib, faqat so'z qo'shilmalar variant sifatida almashishi mumkin. Bu variantlar o'zaro sinonimlik munosabatiga kirisholmaydi.

5.	W	teng ohang	W
Ukam,		Alisher	
Ukamning – Alisherning			

Ushbu paradigmadagi ukam va Alisher so'zlari teng munosabatli so'zlar bo'lsa, ukamning – Alisherning birikishida izohlovchi va izohlanmish munosabati ifodalangan. So'zlarning bog'lanishida tobe ohang bo'lganidek, teng ohang (sanash ohangi) ham mavjuddir. Teng ohang bilan bog'langan so'z qo'shilmalari gap ichida uyushiq bo'lak vazifasini bajaradi va bu bog'lovchi vosita sanash ohangi ham

deb yuritiladi. Masalan: Bog'da olma, anor, nok bor. Bunda *olma, anor, nok* so'zlari o'zaro teng munosabat bilan bog'langan bo'lib, bog'lovchi vositasi teng (sanash) ohang hisoblanadi. Ular sintaktik birlik sifatida so'z qo'shilmasi, gap bo'laki sifatida uyushiq bo'lak hisoblanadi. Shuningdek, gaplarda ajratilgan izoh bo'laklar ham ishtirok etadi. Bunday bo'laklarda izohlovchi va izohlanuvchi o'rtasida ham teng ohangli bog'lanish mavjud. Masalan, *Otdoshing – Farhod maktabni bitiray deb qoldi* gapida *Otdoshing – Farhod* so'zlari ajratilgan izoh bo'lak bo'lib, bunda *Otdoshing* izohlanuvchi *Farhod* so'zi esa izohlovchidir. Uyushiq bo'laklardagi teng ohang yozuvda faqat vergul bilan ifodalansa, ajratilgan izoh bo'laklarda vergul, tire yoki qavs ham ishtirok etadi. Masalan, *Soy bo'yidagi choyxonada, gavjum joyda, Azimjon uchradi* gapida vergul, *Ichki idrok amriga bo'ysunsang, katta inson bo'lasan, ikkinchi darajali (ko'z va quloq sezgilari) tuyg'ularga amal qilsang, mayda odamga aylanasan* gapida esa qavs ajratilgan izoh bo'laklar munosabatini yuzuvdagi ifodasidir. Bir qarashda izohlovchi (ajratilgan) bo'lak izohlanuvchi (ajratilayotgan) bo'lakka tobelangandek tuyiladi. Lekin ular o'rtasida hech qanday tobe vosita (ergashtiruvchi bog'lovchi yoki ohang) mavjud emas. Yozuvda ham ularning teng munosabati vergul, tire yoki ba'zida qavs bilan ifodalanadi. Demak, biz ajratilgan izoh bo'laklardagi izohlanuvchi va izohlovchi birliklarni teng munosabatli so'z qo'shilmalari desak bo'ladi [6-8].

Demak, so'z qo'shilmalar invarianti umumiy holda $W=W$ bo'lsa, bu sistema o'z ichida yana kichik sistemalar – invariantlarga bo'linadi. Buni quyidagi chizma orqali ko'rsatish mumkin.



Bunda $W=W$ barcha so'z qo'shilmalari uchun invariant;

$W b W$ birlashtiruv munosabatli so'z qo'shilmalari uchun invariant;

$W z W$ zidlov munosabatli so'z qo'shilmalari uchun invariant;

W a W ayiruv munosabatli so'z
qo'shilmalari uchun invariant;

W i W inkor munosabatli so'z
qo'shilmalari uchun invariant ;

W o W teng ohang bilan bog'langan so'z
qo'shilmalari uchun invariant hisoblanadi.

So'z qo'shilmasida leksik tarkib bir xil bo'lsa va mazmun – munosabati bir xil bo'lgan har xil shakldagi bo'glovchilar bilan bog'lansa, u variantlar o'zaro sinonim ham hisoblanadi. Agar ular har xil leksik tarkibga ega bo'lsa, bir invariantga variant bo'lsalar-da o'zaro sinonimlik hosil qilolmaydi. Masalan, *go'zal va aqlli* qo'shilmasi bilan *go'zal hamda aqlli* qo'shilmasi o'zaro bir xil leksik tarkibga ega, shuning uchun ham ular variantlardir. Xuddi shu qo'shilma *yaxshi va odobli* so'z qo'shilmasi bilan bitta invariant variantlari hisoblansa-da, ya'ni so'z qo'shilmalarining leksik tarkibi bir xil bo'lmagani uchun leksemalar har xil ma'noga ega va ular o'zaro sinonim bo'lolmaydi [9-10].

Demak, so'z qo'shilmalari variantlari, avvalo, bitta umumiy invariant **W=W**

modeliga ega bo'lsa-da, sistemaviy ravishda so'zlarning o'zaro munosabatiga ko'ra **W b W** , **W z W** , **W a W** , **W i W** , **W o W** modellarini oladi va bu modellar bosh invariant bo'lgan **W=W** ning variantlari hisoblanadi. Kichik invariantlar ham o'z paradigmasiga ega bo'lib, ular leksik materialning bir-biriga yaqinligi yoki yaqin emasligi bilan farqlanadi.

Bitta invariantning variantlari sifatida real nutqda aks etgan variantlar paradigmasida ham yadro a'zo bo'ladi. Bu, ko'pincha, nutqiy uslublar uchun betaraf bo'lgan so'zlardan tashkil topadi. Masalan:

Maktab va litsey

Maktab hamda litsey

Maktab-u litsey

Maktab bilan litsey

Bu paradigmada leksik material bir xil, lekin bog'lovchilar almashgan. Bog'lovchilar orasida uslubiy betaraf bo'lgan *va* bog'lovchisi hisoblanadi. Qolgan bog'lovchilar badiiy (hamda) va so'zlashuv (-u, bilan) uslubiga xos. Demak, paradigmada *va*

bog'lovchisi bilan bog'langan variant yadro a'zo hisoblanadi. Uning marker esa uslubiy betaraflik.

Xulosa. Shunday qilib, fonetik variant gaplar asosa, ohang va ma'no urg'usining o'zgarishi orqali vujudga keladi. Ohang o'zgarishi tufayli hosil bo'luvchi variant gaplar tafovuti og'zaki nutqda darak, buyruq va so'roq kabi bo'yoqlarning talaffuzga qo'shilishidan paydo bo'lsa, yozma nutqda ma'lum tinish belgilar bilan ko'rsatiladi. Ma'no urg'usi bilan farqlanadigan variant gaplar esa so'zlashuvda ma'lum so'zning baland aytilishi, yoki so'zlarning o'rin almashishi bilan belgilanadi. Bunday gaplar yozma uslubda so'zni ma'lum bir holatda ajratish bilan belgilanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Соссюр Ф. де, Курс общей лингвистики, Труды по языкознанию. М. :Прогресс, 1977
2. Nurmonov A, Mahmudov N, Ahmedov A, Solixojayeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. O'z FA // "Fan" . 1992.
3. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv-qo'llanma. T. :Fan va texnologiya. 2009.
4. Mamajonov A, Qo'shma gap stilistikasi, Toshkent, Fan, 1990
5. M. Qodirov, H. Ne'matov, M. Abduraimova, R. Sayfullayeva, B. Mengliyev. Ona tili. Darslik. Toshkent. Cho'lpon. 2019
6. Nabyeva D, O'zbek tilining turli sathlarida umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo'lishi. Toshkent, "SHARQ". 2005.
7. G'ulomov A.G'., Asqarova M.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent. 1965.
8. Sharopova R, Terminologiyada variantdorlik// O'zbek tili va adabiyoti, 1-son, 2012
9. Musayeva F, O'zbek tilida variantlilik// O'zbek tili va adabiyoti, 6-son, 2015
10. Shukurov R. Sintaktik parallellizmning uslubiy vazifalari. // O'zbek tili va adabiyoti. 5-son, 2014